Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони

# РЕСПУБЛИКА САНЪАТКОРЛАРИДАН БИР ГУРУҲИНИ МУКОФОТЛАШ ТЎҒРИСИДА

Юксак ижрочилик маҳорати, республика театр санъатини ривожлантиришдаги хизматлари ҳамда жамоат турмушида фаол иштирок этаётганликлари учун қуйидагиларга Ўзбекистон Республикасининг фахрий унвонлари берилсин:

**"ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚ АРТИСТИ"**

**Йўлчиева Муножот** — Муҳиддин Қориёқубов номидаги ўзбек давлат филармониясининг яккахон хонандаси

**"ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ХИЗМАТ КЎРСАТГАН АРТИСТ"**

**Абдураҳмонов Наби Қаюмович** — Тошкент давлат рус ёш томошабинлар театрининг бадиий раҳбари

**Абдуллаев Исмоил** — Йўлдош Охунбобоев номидаги ўзбек ёш томошабинлар театрининг актёри

**Авдюшкина Ирина Геннадьевна** — Максим Горький номидаги рус академик драма театрининг актёри

**Йўлдошев Шуҳрат Низамович** — "Ўздавтелерадио" компанияси қошидаги Д. Зокиров номли халқ чолғу асбоблари оркестрининг концертмейстери

**Раззоқова Кумуш Қодировна** — Ўзбек Давлат эстрадаси бирлашмасининг яккахон хонандаси

**Усмонова Юлдуз** — Ўзбек давлат эстрадаси бирлашмасининг яккахон хонандаси

**Ўзбекистон Республикаси Президенти И. КАРИМОВ**

Тошкент шаҳри, 1994 йил 10 июнь

# ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МАРКАЗИЙ БАНКИ ХАБАР ҚИЛАДИ

Сўнгги вақтда гўё сўм-купонни муомаладан чиқаришга тайёргарлик кўрилаётган ва яқин кунларда 5000 ва 10000 сўмлик пуллар бекор қилиниши ҳақида миш-мишлар тарқалмоқда.

Шу муносабат билан Марказий банк маълум қиладики, бундай миш-мишлар бутунлай соссиздир.

Республика ҳукумати ва Марказий банки миллий валютани жорий этишга доир барча чора-тадбирлар тўғрисида оммавий ахборот воситалари орқали аҳолини олдиндан хабардор қилади. Ўзбекистон Республикаси миллий валютасини жорий этиш тадбирлари уюшқоқлик билан, шошилмай амалга оширилади. Миллий валютага ўтиш аҳоли манфаатларига путур етказмаслиги учун барча шарт-шароит яратилган.

# ҚУЙИЧИРЧИҚ ПИЛЛАСИ

ВИЛОЯТИМИЗДА дастлабки ҳосил — пилла териш ва топшириш ишлари уюшқоқлик билан давом этмоқда. Куни кеча Қуйичирчиқ тумани пиллакорлари ҳам режаларини ошириб бажариб, ғолиблар сафидан ўрин олдилар. Ватан хирмонига мўлжалдаги 155 тонна ўрнига 116,8 тонна "кумуш тола" топширилди.

Туманда бу йилги қурт боқиш мавсумига ҳар томонлама пухта ҳозирлик кўрилгани, пиллакорлар меҳнати муносиб рағбатлантириб борилганлиги туфайли мўл пилла ҳосили етиштирилди ва бу борадаги режа анча ошириб бажарилди.

Туманнинг юксак пилла хирмонига қатор хўжаликлар муносиб ва салмоқли ҳисса қўшдилар. Мавсумда 6,8 тонна ўрнига 8,3 тонна "кумуш тола" териб топширган "Ўзбекистон", 15 тонна ўрнига 16 тоннага яқин ҳосил йиғиштириб олган Улуғбек номли, 10,7 тонна хирмон кўтарган "Янги ҳаёт", "Гулистон", Беруний, Ҳамза, Ш. Рашидов номли, "Тошовул", "Юлдуз" хўжаликлари миришкорларининг улуши, айниқса, қут-баракали бўлди.

# "ПОЛИТОТДЕЛ"ЛИКЛАР МАРРАГА ЕТДИ

ЮҚОРИЧИРЧИҚ туманидаги "Политотдел" жамоа хўжалиги пиллакорлари маррага етдилар. Хўжаликда 560 қути қурт уруғидан 30 минг килограмм пилла топширилиб, йиллик режа адо этилди. Зафар хирмони уюлган куни жамоа хўжалиги бошқаруви барча пиллакорларга миннатдорчилик билдирди.

Ҳар қути уруғдан 80-90 килограммдан пилла териб олган Мавжуда Умарова, Комила Аширова, Омонгул Толиповалар номи ҳурмат билан тилга олинди. Шунингдек, 136 қути уруғнинг ҳар қутисидан 55 ўрнига 65 килограммдан ипак тола етиштирган Болта даҳаси пиллакорларининг самарали меҳнати алоҳида қайд қилинди.

Хўжаликда пилла топшириш давом этмоқда.

*• Таҳририятга келган хатлардан*

# ИНСОНИЙЛИК ФАЗИЛАТИ

Чиноз туманидаги "Пахтакабель" заводи директори Икром Дадамуҳаммедов ишбилармон ва тадбиркор раҳбарлардан бири. Бозор иқтисодиётидек мураккаб шароитда ҳам у ўз корхонаси шуҳратини сўндирмади: имконият топди, кичик корхоналар қурди, маблағларини кўпайтирди. Натижада "Пахтакабель" жамоаси хайрия тадбирларига ҳам муносиб ҳисса қўшиб, эл раҳматини олмоқда. Корхона вилоят болалар фонди жамғармасига 500 минг сўм ўтказган эди. Яқин кунларда шу жамғармага яна 1 миллион сўм ҳадя этилади.

Туман "Чиноз ҳаёти" газетаси молиявий қийинчиликка учраб, анча вақт тўхтаб қолган эди. Бугунги кунда газета "Пахтакабель" жамоаси ҳомийлигида чиқарилмоқда.

Яқинда туман ҳокимлигининг боғида ўтказилган "Меҳр" байрамида туман ҳокими Эшмуҳаммад Бердиев "Пахтакабель" жамоасининг ана шундай хайрли ишларини алоҳида таъкидлаб ўтди.

Тўкин дастурхон атрофига ота-онасиз етим болалар, уларнинг васийлари, ҳомийлари тўпланган эдилар.

— Туманимизда етим болаларни ўз ҳомийликларига олиб, уларга ғамхўрлик қилаётган жамоалар кўп, — деди биз билан суҳбатда туман ҳокимининг ўринбосари Танзила Оллоберганова. — Масалан, Эргаш Жонтелеев раҳбарлик қилаётган "Ўзбекистон" жамоа хўжалиги Нормирза Тошпўлатовнинг тўққиз укасини ўз ҳомийлигига олди, улардан бирининг номига ҳисоб дафтарчаси очиб, 100 минг сўм қўйди. Туман халқ таълими бўлими касаба уюшмаси эса Нормирзанинг синглиси Дилафрўз номига 100 минг сўмга омонат дафтарчаси очтирди. Тўлаган Омаров раислик қилаётган "Чиноз" наслчилик жамоа хўжалиги эса бир йўла беш нафар етим бола номига 100 минг сўмдан пул қўйди.

"Меҳр", байрамида 25 нафар болага улар номига очилган ва 100 минг сўмдан қўйилган омонат дафтарчалари, туман матлубот жамияти уюшмасининг совғалари топширилди.

Алишер Болиев раҳбарлигидаги "Висол" гуруҳи қатнашчилари, туман пахта тозалаш заводининг "Гулхан" болалар боғчаси кичкинтойлари ўз қўшиқ ва рақслари билан даврага файз киритдилар.

Байрамда вилоят болалар жамғармаси раиси Мунира Солиҳова қатнашиб, жамғарманинг етим болаларга аталган совғаларини, бир гуруҳ хўжалик ва корхона, муассаса раҳбарларига жамғарма "Ташаккурнома"ларини топширди.

**Э. ҚОСИМОВ.**

# ЮҚОРИЧИРЧИҚ ЯНГИЛИКЛАРИ

• Янгибозор ўйингоҳида ўсмирлар орасида республика биринчилиги учун чим устида хоккей бўйича мусобақа бўлиб ўтди. Биринчи ўрин самарқандликларга, иккинчи ўрин юқоричирчиқликларга насиб этди.

• Талғат Арнақулов тумандаги 4-ўрта мактабда ўқийди. Бокс бўйича Олмалиқ шаҳрида ўтган мусобақада енгил вазнда у биринчи ўринни эгаллади.

• Май ойи "Политотдел" жамоа хўжалигининг Болта даҳаси аҳолиси учун қувончли бўлди. Бу ерда кундузги шифохона ишлай бошлади. Шунингдек, хўжалик аъзолари М.Каримов тасарруфидаги ошхона қошида очилган новвойхона хизматидан ҳам хурсандлар. Бу ерда М.Бобоқулов ёпаётган бўрсилдоқ нонларнинг ҳар бири бозордагидан анча арзон сотилмоқда.

Шу даҳадаги ҳаммомни Қўчқор Назирбоев хусусийлаштириб олган эди. У фашизмга қарши уруш қатнашчилари, ногиронларга ювинишни бепул қилиб қўйди.

**С. АБДУЛЛАЕВ.**

# ҲАФТАЛИК КЎРСАТУВЛАР

## ДУШАНБА

**13 ИЮНЬ**

**. ЎзТВ I**

**17.55** Кўрсатувлар тартиби.
**18.00** "Бугун". Ахборот кўрсатуви.
**18.10** "Қизил Ярим ой шуъласи".
**18.35** "Ёшлик" студияси. "Кимга қанақа?".
**19.25** Эълонлар.
**19.30** "Ўзбекистон" ахбороти (рус тилида).
**19.50** Эълонлар.
**19.55** "Мусиқий оҳанглар". Телефильм.
**20.10** Оқшом эртаклари.
**20.25** Ўзбекистон Давлат телерадиокомпанияси дуторчи қизлар ансамблининг концерти.
**20.55** Эълонлар.
**21.00** "Ўзбекистон" ахбороти.
**21.25** Эълонлар.
**21.30** Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг уч йиллигига. "Юрт ҳақида қўшиқ".
**22.10** "Театр учрашувлари". Олим Хўжаев номидаги Сирдарё вилоят театридан ёзиб олинган.
**23.20** "Ўзбекистон" ахбороти.
**23.45** Эртанги кўрсатувлар тартиби.

**. ЎзТВ II**

**19.30** "Ўзбекистон" ахбороти (рус тилида).
**19.50** "Билиб қўйган яхши".
**20.10** "Деҳқон ҳиммати".
**20.40** Бевосита мулоқот. Нафақа тўлашдаги янги қоидалар хусусида.
**21.40** "Генерал Собир Раҳимов". Бадиий фильм.

**. ЎзТВ III**
**ХАЛҚАРО ТЕЛЕКАНАЛ**

*

**18.00—19.25**
**ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

*

**РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

**19.25** Душанба куни детектив. "Спрут — 5". Бадиий фильм. 5-серия.
**21.15** "Ўшанда ҳам мен куламан...". Е. Шифрин. Концерт дастури.
**22.20—22.25** Спорт кўрсатуви.

*

**ЎЗБЕКИСТОН ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

**22.25** "Хавфли учиш". Бадиий фильм.

**. "ОСТАНКИНО" ТЕЛЕКАНАЛИ**

**17.45** "КВН-94". 1/4 финал.
**19.40** Хайрли тун, кичкинтойлар!
**20.00** Янгиликлар.
**20.30** "Бомонд".
**20.45** "Жиноятчиликка қарши курашувчилар". Бадиий фильм (Италия).
**22.50 — 23.05** "Спорт уик-энди".

## СЕШАНБА

**14 ИЮНЬ**

**. ЎзТВ I**

**6.30 — 8.30** "Ассалом, Ўзбекистон!". Тонгги дам олиш кўрсатуви.

*

**8.30** Болалар учун фильм. "Метичара — денгиз жонивори".
**9.55** "Шермат Файзуллаев куйлайди". Фильм-концерт.
**10.25** Ўқув кўрсатуви. Химия.
**10.55** "Шоҳ Султон ҳақида эртак". Мультфильм.
**11.50** Ўзбек тилини ўрганамиз.
**12.20** "Номаълум Бухоро". Телефильм.
**12.40** Ўқув кўрсатуви. География.

***

**17.55** Кўрсатувлар тартиби.
**18.00** "Бугун". Ахборот кўрсатуви.
**18.10** "Яшил бойлигимиз".
**18.45** "Санъат маскани". Телефильм.
**18.55** "Фан уфқлари".
**19.25** Эълонлар.
**19.30** "Ўзбекистон" ахбороти (рус тилида).
**19.50** Эълонлар.
**19.55** "Соз ва созанда". Мирзашариф Мирбаротов.
**20.10** Оқшом эртаклари.
**20.25** "Ҳуқуқий жамият сари".
**20.55** Эълонлар.
**21.00** "Ўзбекистон" ахбороти.
**21.25** Эълонлар.
**21.30** "Европа сафари таассуротлари". Муножат Йўлчиева.
**22.30** "Севги қудрати". Бадиий фильм.
**23.40** "Ўзбекистон" ахбороти.
**00.05** Эртанги кўрсатувлар тартиби.

**. ЎзТВ II**

**19.30** "Ўзбекистон" ахбороти (рус тилида).

**"ОМАД" таништиради:**

**19.50** "Мультфейерверк".
**20.35** "Эм-Ти-Ви" оҳанглари ва эълонлар.
**21.00** Видео янгиликлари.
**21.20** "Эм-Ти-Ви" оҳанглари ва эълонлар.
**22.00** "Кинонигоҳ".

**. ЎзТВ III**
**ХАЛҚАРО ТЕЛЕКАНАЛ**
**"ОМАД" таништиради:**

**9.00** "Совға".
**9.30** "Ҳар соҳадан бир шингил".
**9.40** Эълонлар.
**9.45** Видео — "О".
**11.15** Эълонлар.
**11.25** "Курьер".
**11.40** "Ҳар соҳадан бир шингил".
**12.00** Эълонлар.
**12.10** "Юлдузлар жилоси".
**12.30** "Даракчи".
**12.40** Эълонлар.
**12.50** Видео — "О".

*

**18.00—19.55**
**ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

*

**РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

**19.55** Хонаки экран. "Санта-Барбара". Кўп серияли бадиий телефильм премьераси. 330-серия.
**20.45** "Ҳақиқат онлари".

*

**ЎЗБЕКИСТОН ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

**21.40** "Марҳумлар ёш қоладилар". Бадиий фильм.

**. "ОСТАНКИНО" ТЕЛЕКАНАЛИ**

**5.30 — 7.45** "Тонг".

***

**18.00** "Тиғиз пайт".
**18.25** "Шаддод Роза". Телесериал (Мексика).
**18.55** "Мавзу".
**19.40** Хайрли тун, кичкинтойлар!
**20.00** Янгиликлар.
**20.30** "Илк манбадан".
**20.40** "Ҳимоясиз". Бадиий фильм (Франция).
**22.20 — 23.05** 1994 йил қўшиқлари.

## ЧОРШАНБА

**15 ИЮНЬ**

**. ЎзТВ I**

**6.30 — 8.30** "Ассалом, Ўзбекистон!". Тонгги дам олиш кўрсатуви.

*

**8.30** Болалар учун фильм. "Олтин калитча".
**9.45** Ўқув кўрсатуви. Математика.
**10.15** "Куйла, дуторим". Фильм-концерт.
**10.40** "Уорлднет" телекомпаниясининг янгиликлари (АҚШ).
**10.55** Ўқув кўрсатуви. Ўзбек тили ва адабиёти.
**11.25** "Иқтисодий ислоҳотлар: дастлабки натижалар".

***

**17.55** Кўрсатувлар тартиби.
**18.00** "Бугун". Ахборот кўрсатуви.
**18.10** "Кичкинтой" студияси. "Қўғирчоқлар — менинг дўстларим".
**18.35** "ЭКОСАН. Ҳаёт билан ҳамнафас".
**19.05** "02" тўлқинида.
**19.25** Эълонлар.
**19.30** "Ўзбекистон" ахбороти (рус тилида).
**19.50** Эълонлар.
**19.55** Шифокор маслаҳати.
**20.05** Кинолавҳа.
**20.10** Оқшом эртаклари.
**20.25** Бир асар тарихи. Барот Бойқобилов. "Навоийнома".
**20.55** Эълонлар.
**21.00** "Ўзбекистон" ахбороти.
**21.25** Эълонлар.
**21.30** Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг уч йиллигига. "Гулла, яшна, мустақил диёр". Экранда — Фарғона вилояти.
**22.30** Замонавий ўзбек қўшиқларининг "Анор" телевизион танлови.
**23.30** "Ўзбекистон" ахбороти.
**23.55** Эртанги кўрсатувлар тартиби.

**. ЎзТВ II**

**19.30** "Ўзбекистон" ахбороти (рус тилида).
**19.50** "Спринт".
**20.15** "Ҳуқуқ посбонлари".
**20.45** "Шаҳар юмушлари".
**21.45** "Олий мақсад сари". Бадиий фильм. 1 — 2-сериялар.

**. ЎзТВ III**
**ХАЛҚАРО ТЕЛЕКАНАЛ**

*

**18.00 — 19.55**
**ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

*

**РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

**19.55** "Жаноблар-ўртоқлар".
**20.10** Хонаки экран. "Санта-Барбара". Кўп серияли бадиий телефильм премьераси. 331-серия.
**21.00** Фильмлар премьераси.
**21.15** "Газета билан содир бўлган воқеалар".
**22.10** Криминал хабарлар экрани.
**22.20** Спорт кўрсатуви.

*

**ЎЗБЕКИСТОН ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

**22.25** "Олтин сур". Бадиий фильм.

**. "ОСТАНКИНО" ТЕЛЕКАНАЛИ**

**5.30 — 7.45** "Тонг".

***

**18.00** "Тиғиз пайт".
**18.25** "Шаддод Роза". Телесериал.
**18.50** Э. Радзинский ҳикоя қилади.
**19.40** Хайрли тун, кичкинтойлар!
**20.00** Янгиликлар.
**20.30** "Монолог".
**20.40 — 23.15** "Жинлар". Бадиий фильм.

## ПАЙШАНБА

**16 ИЮНЬ**

**. ЎзТВ 1**

**6.30 — 8.30** "Ассалом, Ўзбекистон!". Тонгги дам олиш кўрсатуви.

*

**8.30** "Футболдан оғиз очманг". Бадиий фильм.
**9.35** "Асрлар оҳанги". Фильм-концерт.
**10.05** Ўқув кўрсатуви. Биология.
**10.35** "Уорлднет" телекомпаниясининг янгиликлари (АҚШ).
**10.50** "Ёшлик" студияси. "Ёшлар ва замон".
**11.40** Ўқув кўрсатуви. Информатика ва ҳисоблаш техникаси асослари.
**12.10** Болалар учун. "Эртаклар — яхшиликка етаклар".

***

**17.55** Кўрсатувлар тартиби.
**18.00** "Бугун". Ахборот кўрсатуви.
**18.10** "Уч қурбақа". Мультфильм.
**18.20** "Ёшлик" студияси. "Имконият излаб".
**18.55** "Фаровонлик калити". Республика миқёсида кимошди савдоси натижалари ва муаммолари.
**19.25** Эълонлар.
**19.30** "Ўзбекистон" ахбороти (рус тилида).
**19.50** Эълонлар.
**19.55** "Унутилган ўйинлар". Телефильм.
**20.10** Оқшом эртаклари.
**20.25** "Қўшиқ рақсга уланса".
**20.55** Эълонлар.
**21.00** "Ўзбекистон" ахбороти.
**21.25** Эълонлар.
**21.30** "Ўзбекистон ва жаҳон".
**22.00** "Шаҳарликлар". Бадиий фильм.
**23.20** "Ўзбекистон" ахбороти.
**23.45** Эртанги кўрсатувлар тартиби.

**. ЎзТВ II**

**19.30** "Ўзбекистон" ахбороти (рус тилида).

**"ОМАД" таништиради:**

**19.50** "Омад" тақвими.
**20.00** "Жозиба".
**20.20** "Бир шингил ҳангома".
**20.30** "Зиндаги ёҳуд муҳаббат".
**20.55** Видео янгиликлари.
**21.20** "Эм-Ти-Ви" оҳанглари ва эълонлар.
**22.05** "Кинонигоҳ".

**. ЎзТВ III**
**ХАЛҚАРО ТЕЛЕКАНАЛ**

*

**18.00 — 19.55**
**ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

*

**РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

**19.55** Спорт кўрсатуви.
**20.00** Хонаки экран. "Санта-Барбара". Кўп серияли бадиий телефильм премьераси. 332-серия.
**20.50** Ватандошлар. "Хотиранинг тикланиши".
**21.20** Криминал хабарлар экрани.
**21.30** Хоккей. Стэнли кубоги.

*

**ЎЗБЕКИСТОН ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

**22.30** "Турнахон". Бадиий фильм.

**. "ОСТАНКИНО" ТЕЛЕКАНАЛИ**

**5.30 — 7.45** "Тонг".

***

**18.00** "Тиғиз пайт".
**18.25** "Шаддод Роза". Телесериал.
**18.50** "Гитлер — Сталин. Сирли уруш". Телефильм.
**19.40** Хайрли тун, кичкинтойлар!
**20.00** Янгиликлар.
**20.30** "Вагон — 03".
**20.40** "Кўнгилдагидек келин". Бадиий фильм. (Франция).
**22.25** "Матбуот-экспресс".
**22.35 — 23.00** "Сизга атаб қўшиқ куйлайман".

## ЖУМА

**17 ИЮНЬ**

**. ЎзТВ I**

**6.30 — 8.30** "Ассалом, Ўзбекистон!". Тонгги дам олиш кўрсатуви.

*

**8.30** Болалар учун фильм. "Менинг отам капитан".
**9.40** "Фароғат опа". Телефильм.
**10.10** Ўқув кўрсатуви. Физика.
**10.40** "Уорлднет" телекомпаниясининг янгиликлари (АҚШ).
**10.55** "Ишбилармон". Фарғона вилоятидан.
**11.25** Ўқув кўрсатуви. Ўзбекистон тарихи.

***

**17.55** Кўрсатувлар тартиби.
**18.00** "Бугун". Ахборот кўрсатуви.
**18.10** "Жасур чўпон бола". Мультфильм.
**18.20** Болалар учун. "Устозлар ёди".
**18.50** Ўзбек киносининг 70 йиллигига. "Ўзкинохроника". "Ўчмас йиллар хотираси".
**19.25** Эълонлар.
**19.30** "Ўзбекистон" ахбороти (рус тилида).
**19.50** Эълонлар.
**19.55** Дунё воқеалари.
**20.10** Оқшом эртаклари.
**20.25** Ўзбекистон халқ артисти Отажон Худойшукуров концерти.
**20.55** Эълонлар.
**21.00** "Ўзбекистон" ахбороти.
**21.25** Эълонлар.
**21.30** Бевосита мулоқот.
**22.25** "Тоғнинг гули ўзгача". Телефильм.
**22.45** "Ўзбекистон" ахбороти.
**23.10** Футбол бўйича жаҳон чемпионатининг тантанали очилиши.
**00.05** Футбол. Жаҳон чемпионати.

**. ЎзТВ II**

**19.30** "Ўзбекистон" ахбороти (рус тилида).
**19.50** "Саломатлик — туман бойлик".
**20.20** "Армуда". Телефильм.
**20.30** "Тиғиз пайтда".
**21.00** "Ўзбекистон" ахбороти.
**21.25** "Тошкент оқшомлари".
**22.25** "Ретро" концерти. Леонид Куравлёв.
**23.20** "Яшин тутган сувори". Бадиий фильм.

**. ЎзТВ III**
**ХАЛҚАРО ТЕЛЕКАНАЛ**

*

**18.00 — 19.50**
**ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

*

**РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

**19.50** Киномарафон. "Римда тун эди". Бадиий фильм. 1 — 2-сериялар.

*

**ЎЗБЕКИСТОН ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

**22.30** Ғалабанинг 50 йиллиги олдидан. "Ҳамма таниган номаълум шахс". Телевизион бадиий фильм. 1 — 2-сериялар.

**. "ОСТАНКИНО" ТЕЛЕКАНАЛИ**

**5.30 — 7.45** "Тонг".

***

**18.00** "Ҳафтанинг акс садоси".
**18.20** "Горячев ва бошқалар". Бадиий телесериал. 30-серия.
**18.50** "Мўъжизалар майдони".
**19.40** Хайрли тун, кичкинтойлар!
**20.00** Янгиликлар.
**20.25** "Ҳафтанинг машҳур кишиси".
**20.45** "Одесса киностудияси — 75 ёшда". Ретроспектив намойиш. "Вертикаль". Бадиий фильм (1967 й.).
**22.00 — 22.35** Янгиликлар.

## ШАНБА

**18 ИЮНЬ**

**. ЎзТВ I**

**6.30 — 8.30** "Ассалом, Ўзбекистон!". Тонгги дам олиш кўрсатуви.

*

**8.30** "Мовий тоғлар ёки ҳақиқатдан узоқ воқеа". Бадиий фильм.
**10.00** "Ёнғиндан сақланинг!".
**10.30** "Ёшлик" студияси. "Ҳуқуқ сабоқлари".
**11.30** "Шеърий дақиқалар". Одил Абдураҳмонов.
**11.40** "Сирли сандиқ". Телеўйин.
**12.40** "Наманган гуллари". 1-кўрсатув.
**13.10** "Халқ ижодиёти". Андижон вилояти Бўз тумани бадиий ҳаваскорлик жамоаларининг концерти.

***

**17.55** Кўрсатувлар тартиби.
**18.00** "Ғаройиб ҳодиса". Мультфильм.
**18.10** Болалар учун. "Қуёшни кулдирган қизалоқлар".
**18.45** "Абдулла Қодирий ва миллий маданият".
**19.25** Эълонлар.
**19.30** "Ўзбекистон" ахбороти (рус тилида).
**19.50** Эълонлар.
**19.55** "Салом, Ҳиндистон". Телефильм.
**20.10** Оқшом эртаклари.
**20.25** Санъат усталарининг концерти.
**20.55** Эълонлар.
**21.00** "Ўзбекистон" ахбороти.
**21.25** Эълонлар.
**21.30** "Қўшиқ ва шеърият кечаси". Гиёс Бойтоев ва Муҳаммад Юсуф.
**22.30** "Тунги ёғду". Дам олиш кинодастури.
**00.55** Футбол. Жаҳон чемпионати.

**. ЎзТВ II**

**19.30** "Ўзбекистон" ахбороти (рус тилида).
**19.50** Болалар учун. "Табассум".
**20.30** Ўзбек киносининг 70 йиллигига. "Ўчмас йиллар хотираси". Кинопрограмма.
**21.00** "Ўзбекистон" ахбороти.
**21.25** "Танго оҳангида".
**21.55** "Граф Монте Кристо". Бадиий фильм. 1 — 2-сериялар.

**. ЎзТВ III**
**ХАЛҚАРО ТЕЛЕКАНАЛ**

*

**12.10 — 16.00**
**"ЎЗБЕКИСТОН" ТЕЛЕКАНАЛИ**

**12.10** "Мамлакатлар, воқеалар, одамлар".
**12.25** "Ўзбекистон жаҳонга юз тутмоқда".
**13.05** "Безнен мирас" (татар тилида).
**13.45** "Би-Би-Си" янгиликлари (инглиз тилида).
**14.00** "Маҳалланг тинч, сен тинч".
**14.15** "Умид" (уйғур тилида).
**14.55** "Си-Эн-Эн" янгиликлари (инглиз тилида).
**15.10** "Қалбим кўри". Композитор ва хонанда В. Михайлов.
**15.45** "Бу ажиб дунё".

*

**18.00 — 19.20**
**ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

*

**РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

**19.25** Телеэкран премьераси. "Таваккал Б". Бадиий фильм.
**20.45** "Мутлақо махфий".
**21.35** "Куликов майдони". Мусиқий кўрсатув.
**22.20** Спорт кўрсатуви.

*

**ЎЗБЕКИСТОН ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

**22.30** "Ҳамма таниган номаълум шахс". Телевизион бадиий фильм. 3 — 4-сериялар.

**. "ОСТАНКИНО" ТЕЛЕКАНАЛИ**

**17.50** "Рукн премьераси" туркумидан кўрсатув.
**18.40** "Коламбия пикчерс" таништиради: "Комиссар". Телесериал.
**19.40** Хайрли тун, кичкинтойлар!
**20.00** Янгиликлар.
**20.30** Футбол. Жаҳон чемпионати. АҚШ — Швейцария терма командалари. АҚШдан олиб кўрсатилади.
**22.25** П. И. Чайковский номидаги X халқаро танловда.
**22.45 — 22.55** "Матбуот-экспресс".

## ЯКШАНБА

**19 ИЮНЬ**

**. ЎзТВ I**

**6.30—8.30** "Ассалом, Ўзбекистон!". Тонгги дам олиш кўрсатуви.

*

**8.30** "Маҳобҳорат". Кўп қисмли телевизион бадиий видеофильм (Ҳиндистон). 71—72-сериялар.
**10.00** "Ёшлик" студияси. "Ватанимга хизмат қиламан".
**10.30** "Шоҳруҳ клуби".
**11.00** "Ҳужжатли экран". Кинокўрсатув.
**11.40** "Рақкоса хиром этганда". Саодат Ҳайиталиева.
**12.15** "Наманган гуллари". 2-кўрсатув.
**13.00** "Цирк, цирк, цирк".

***

**17.55** Кўрсатувлар тартиби.
**18.00** "Сеҳрли сандиқ", "Қойилмақом Гоша". Мультфильмлар.
**18.15** Ўсмирлар учун. "Гўзаллик гулшани".
**18.45** "Сиҳат-саломатлик".
**19.25** Эълонлар.
**19.30** "Ҳафтанома" (рус тилида).
**20.00** Эълонлар.
**20.05** "Саҳродаги қўриқхона". Телефильм.
**20.15** "Актёрлар ва роллар". Ўзбекистон халқ артисти Соли Аҳмедов.
**20.55** Эълонлар.
**21.00** "Ҳафтанома".
**21.30** Эълонлар.
**21.35** "Ойнаи жаҳонда...".
**21.55** "Юрагимда ёнар муҳаббат". Юлдуз Абдуллаеванинг янги дастури.
**22.30** Футбол. Жаҳон чемпионати.

**. ЎзТВ II**
**"ОМАД" таништиради.**

**17.00** "Совға".
**17.30** "Ҳар соҳадан бир шингил".
**17.40** Эълонлар.
**17.45** Видео — "О".
**19.30** Эълонлар.
**19.40** "Курьер".
**19.55** "Ҳар соҳадан бир шингил".
**20.15** Эълонлар.
**20.20** "Рок ҳақида".
**20.50** "Даракчи".
**21.00** "4/8". Мусиқий кўрсатув.
**21.20** Эълонлар.
**21.30** Видео — "О".

**. ЎзТВ III**
**ХАЛҚАРО ТЕЛЕКАНАЛ**

*

**12.45 — 16.35**
**"ЎЗБЕКИСТОН" ТЕЛЕКАНАЛИ**

**12.45** "Мамлакатлар, воқеалар, одамлар".
**13.05** "Сиёсий портретга чизгилар". Нельсон Мандела.
**13.25** "Ҳамкорлик — тараққиёт нишонаси".
**14.10** "Би-Би-Си" янгиликлари (инглиз тилида).
**14.25** Сиз ёқтирган қўшиқлар.
**14.55** "Сайёрадош — бир оиламиз".
**15.25** "Фанлар оламида".
**15.35** "Си-Эн-Эн" янгиликлари (инглиз тилида).
**15.50** "Барча юлдузлар". Луи Армстронг.
**16.20** "Бу ажиб дунё".

*

**РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

**16.35 — 18.15** Футбол бўйича жаҳон чемпионати.

*

**18.15 — 19.45**
**ТУРКИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

*

**РОССИЯ ТЕЛЕВИДЕНИЕСИ**

**19.45** "Санъат майдони". Владимир Ашкенази.
**20.40** "Си-Би-Эс" кинотеатри. "Тунги сайр". Бадиий фильм.
**22.20** "Ҳеч ким унутилмайди".

*

**22.25** "Тунларни кузатиб". Бадиий фильм.

**. "ОСТАНКИНО" ТЕЛЕКАНАЛИ**

**17.40** "Нима? Қаерда? Қачон?"
**18.55** Премьера. Жан-Поль Бельмондо "Душманимнинг жасади" бадиий фильмида (КТВ-I" ҳамда "Франс интернасиональ" канали).
**21.00** "Якшанба". Ахборот-публицистик кўрсатуви.
**21.55 — 22.30** "Гол". ФИФАнинг футбол викторинаси. Финал.

